KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Hamroqulov Xushbaxt Sadriddinovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: xushbaxtisadriddin@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy-konseptual asoslari tahlil qilinib, integratsiyalashgan yondashuv ishlab chiqilgan. Tizimli, institutsional va qiyosiy tahlil hamda Markaziy bankning 2021–2023-yillardagi ma’lumotlari asosida moliyalashtirish mexanizmi turli moliyaviy vositalarni birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilindi. Samaradorlik omillari olti guruhga ajratilib, korxona hayotiy sikli, pul oqimi, risk taqsimoti, moliyaviy qo‘shimchalik va qayta aloqa tamoyillariga asoslangan konseptual model taklif etildi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, moliyalashtirish mexanizmi, kredit ratsionirovkasi, axborot assimetriyasi, institutsional yondashuv, moliyaviy inklyuziya, muqobil moliyalashtirish, raqamli skoring.

Abstract. This article examines the theoretical and conceptual foundations of small business financing mechanisms and develops an integrated approach to their improvement. Using systems, institutional, and comparative analysis together with Central Bank data for 2021–2023, the financing mechanism is interpreted as an integrated system combining various financial instruments. The factors affecting financing efficiency are classified into six groups, and a conceptual model is proposed based on the firm’s life cycle, cash flow, risk sharing, financial additionality, and feedback principles.

Keywords: small business, financing mechanism, credit rationing, information asymmetry, institutional approach, financial inclusion, alternative finance, digital scoring.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-концептуальные основы механизмов финансирования малого бизнеса и разработан интегрированный подход к их совершенствованию. На основе системного, институционального и сравнительного анализа, а также данных Центрального банка за 2021–2023 годы механизм финансирования представлен как целостная система,

объединяющая различные финансовые инструменты. Факторы эффективности финансирования сгруппированы по шести направлениям, предложена концептуальная модель, основанная на жизненном цикле предприятия, денежных потоках, распределении рисков, финансовой дополнительности и обратной связи.

Ключевые слова: малый бизнес, механизм финансирования, кредитное рационирование, информационная асимметрия, институциональный подход, финансовая инклюзия, альтернативное финансирование, цифровой скоринг.

Kirish. Kichik biznes iqtisodiy o‘sish, bandlik va innovatsion faollikning muhim omili hisoblanadi. Biroq kapital bazasining cheklanganligi, moliyaviy axborot sifati va garov ta’minotining yetishmasligi uning tashqi moliyaviy resurslardan foydalanishini qiyinlashtiradi. Shu sababli kichik biznesni moliyalashtirish kredit taklifi bilan cheklanmay, axborot, risk, institutsional muhit va moliyaviy vositalarning o‘zaro ta’sirini ham qamrab oladi.

Mavjud nazariyalar moliyalashtirish manbalarini tanlash, qarz va kapital muvozanati, kredit cheklovlari, agentlik munosabatlari hamda institutsional shartlarni alohida izohlaydi [1–6]. Biroq bank krediti bilan bir qatorda mikromoliya, lizing, faktoring, kafillik, venchur kapital, kraudfanding, islomiy moliya va raqamli kreditlashning rivojlanishi integratsiyalashgan yondashuvni talab etmoqda. Bunda moliyaviy vositalarning korxona hayotiy sikli, pul oqimi va risk profiliga mosligi muhim ahamiyatga ega [7, 8].

Maqolaning maqsadi kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy-konseptual asoslarini takomillashtirish va firma, bozor, institutlar, davlat siyosati hamda raqamli texnologiyalar omillarini yagona modelga birlashtirishdan iborat. Ilmiy yangilik moliyalashtirish mexanizmining mualliflik ta’rifini aniqlashtirish, samaradorlik omillarini olti guruhga ajratish va qayta aloqa tamoyiliga asoslangan integratsiyalashgan modelni taklif etishda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Kichik biznesni moliyalashtirish korporativ moliya nazariyalariga tayansa-da, kichik firmalarning axborot shaffofligi, aktivlar tarkibi va kapital bozoriga kirish imkoniyatlari yirik korxonalardan farq qiladi. Modigliani–Miller nazariyasi kapital tuzilmasining umumiy asosini yaratgan bo‘lsa [1], “Pecking Order” ichki mablag‘lar, qarz va tashqi kapitaldan foydalanish

ketma-ketligini izohlaydi [4]. Kredit ratsionirovkasi axborot assimetriyasi sharoitida kredit taklifining cheklanishini [3], agentlik nazariyasi esa kreditor va qarz oluvchi o‘rtasidagi monitoring hamda manfaatlar ziddiyatini tushuntiradi [2].

Berger va Udell moliyalashtirish manbalari korxonaning rivojlanish bosqichiga qarab o‘zgarishini asoslaydi [7, 10]. Institutsional yondashuv moliyalashtirish samaradorligini mulk huquqi, sud tizimi, kredit axboroti va moliyaviy infratuzilma sifati bilan bog‘laydi [6, 12]. Raqamli tranzaksiyalar, elektron hisob-fakturalar va muqobil skoring esa axborot assimetriyasini kamaytiruvchi zamonaviy vositalar sifatida shakllanmoqda [8, 9].

Adabiyotlar tahlili mavjud yondashuvlar kapital tanlovi, kredit cheklovi, agentlik muammolari, institutsional muhit va hayotiy siklni alohida izohlashini, biroq instrumentlar mosligi, risk taqsimoti, raqamli axborot va iqtisodiy natijalarni yagona tizimda yetarlicha birlashtirmasligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, nazariy sintez, institutsional, strukturaviy-funksional va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Konseptual modelni tavsifiy asoslash uchun Markaziy bankning 2021–2023-yillardagi ma’lumotlari, rasmiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar materiallari tahlil qilindi [13–16]. Tadqiqotning konseptual propozitsiyasiga ko‘ra, moliyalashtirish samaradorligi kredit hajmining o‘sishi bilangina emas, balki instrumentlar mosligi, axborot shaffofligi, risk taqsimoti, institutsional sifat va manbalar diversifikatsiyasining uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Natijalar. Nazariy va institutsional manbalarni umumlashtirish asosida kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmi korxonaning hayotiy sikli, pul oqimi, risk profili va investitsiya maqsadiga mos moliyaviy vositalar, institutlar, axborot infratuzilmasi hamda iqtisodiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida aniqlandi. Mazkur yondashuv moliyalashtirishni mablag‘ manbalari yig‘indisi emas, balki “ehtiyoj–instrument–risk–axborot–natija” zanjiri sifatida talqin qiladi.

Moliyalashtirish mexanizmi samaradorligining integral ko‘rsatkichi quyidagicha ifodalanadi:

$$E_{KBM} = w_1 A_N + w_2(1 - C_N) + w_3 M_N + w_4 D_N + w_5 R_N + w_6 I_N + w_7 T_N$$

Vazn koeffitsientlari uchun quyidagi shartlar belgilanadi:

$$\sum_{i=1}^{7} w_i = 1, \qquad w_i \geq 0$$

Moliyalashtirish mexanizmi samaradorligining qo‘shimcha iqtisodiy natijaga ta’siri kelgusi empirik tadqiqotlarda quyidagi tenglama orqali ifodalanishi mumkin:

$$\Delta Y = \beta_0 + \beta_1 E_{KBM} + \gamma^T X + \varepsilon, \qquad \beta_1 > 0$$

Bu yerda E_{KBM} — moliyalashtirish mexanizmi samaradorligining integral ko‘rsatkichi; A_N — moliyaviy resurslarga kirish; C_N — moliyalashtirish qiymati; M_N — muddat va pul oqimi mosligi; D_N — diversifikatsiya; R_N — risk taqsimoti; I_N — institutsional muhit; T_N — moliyaviy shaffoflik; w_i — ko‘rsatkichlarning vaznlari; ΔY — qo‘shimcha iqtisodiy natija; X — nazorat omillari; ε — hisobga olinmagan omillar.

Barcha ko‘rsatkichlar 0–1 oralig‘ida normallashtiriladi. Moliyalashtirish qiymati samaradorlikka teskari ta’sir qilgani sababli $1-C_N$ shaklida kiritiladi. Taklif etilgan indeks konseptual xususiyatga ega bo‘lib, uning vaznlari va model koeffitsientlari keyingi empirik tadqiqotlarda aniqlanadi.

1-jadval. Kichik biznesni moliyalashtirish nazariyalarining integratsiyalashgan talqini[35]

Nazariy yondashuv	Asosiy muammo	Izohlash mexanizmi	Modeldagi vazifasi	Asosiy cheklovi
Pecking Order	Axborot assimetriyasi	Ichki mablag‘ → qarz → ulushli kapital	Moliyalashtirish manbalari tanlovini izohlaydi	Davlat va institutlar rolini yetarli qamramaydi
Trade-off	Qarz foydasi va moliyaviy risk	Qarz va kapital o‘rtasidagi muvozanat	Moliyalashtirish qiymati va risk bog‘liqligini asoslaydi	Kreditga kirish cheklovini to‘liq tushuntirmaydi
Kredit ratsionirovkasi	Salbiy tanlov va axloqiy xatar	Kredit taklifini cheklash	Garov, skoring va kafillik zaruratini	Muqobil moliyalashtirishni kam yoritadi

[35] *muallif tomonidan [1–10] manbalar asosida tuzilgan*

			asoslaydi	
Agentlik nazariyasi	Kreditor–qarz oluvchi manfaatlari ziddiyati	Monitoring va shartnoma mexanizmlari	Nazorat va risk taqsimotini izohlaydi	Makroiqtisodiy omillarni kam hisobga oladi
Institutsional yondashuv	Huquqiy va moliyaviy muhit sifati	Mulk huquqi, sud va kredit axboroti	Moliyaviy ekotizim shartlarini tushuntiradi	Firma ichki omillarini kam yoritadi
Moliyaviy o‘sish sikli	Instrument va rivojlanish bosqichi nomuvofiqligi	Hayotiy siklga qarab manbalar almashuvi	Instrument–ehtiyoj mosligini asoslaydi	Institutsional muammolarni mustaqil hal qilmaydi

1-jadvaldagi nazariy yondashuvlar moliyalashtirish manbalari tanlovi, axborot va risk muammolari, institutsional shartlar hamda instrumentlarning korxona rivojlanish bosqichiga mosligini izohlaydi. Shu asosda samaradorlik omillari makroiqtisodiy, meso, mikro, institutsional-huquqiy, davlat qo‘llab-quvvatlashi va texnologik guruhlarga ajratildi.

2-jadval. Kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar tasnifi[36]


Omillar guruhi	Asosiy elementlar	Ta’sir mexanizmi	Asosiy indikatorlar
Makroiqtisodiy	Inflyatsiya, monetar siyosat, iqtisodiy o‘sish, valyuta kursi va likvidlik	Kredit qiymati, resurslar taklifi va investitsion kutilmalarni belgilaydi	Real foiz stavkasi, kredit o‘sishi, inflyatsiya va YaIM o‘sishi

[36] *[8, 10–13, 18] manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Meso — moliyaviy infratuzilma	Bank raqobati, mikromoliya, lizing, faktoring, kafillik va kapital bozori	Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qiladi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi	Moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchilar soni, nobank moliya ulushi va kafillik qamrovi
Mikro — firma darajasi	Firma yoshi va hajmi, pul oqimi, kredit tarixi, garov, menejment, innovatsiya va eksport	Kreditga layoqatlilik, risk darajasi va moliyaviy instrumentlarga ehtiyojni belgilaydi	DSCR, tushum barqarorligi, firma yoshi, audit mavjudligi va eksport ulushi
Institutsional-huquqiy	Mulk huquqi, shartnomalar ijrosi, sud tizimi, soliq ma’muriyati va kredit axboroti	Kreditorlar ishonchi va moliyaviy bitimlar xarajatlariga ta’sir qiladi	Qarzni undirish muddati, kredit byurosi qamrovi va rasmiy aylanma ulushi
Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Kafillik, foiz kompensatsiyasi, subsidiya, grant va taraqqiyot institutlari	Bozor muvaffaqiyatsizliklarini yumshatadi va risklarni taqsimlaydi	Moliyaviy qo‘shimchalik, safarbar qilingan xususiy kapital va fiskal xarajatlar
Texnologik	Fintech, ochiq moliya, elektron to‘lovlar, elektron hisob-faktura va muqobil skoring	Axborot assimetriyasi, ariza xarajatlari va qaror qabul qilish muddatini qisqartiradi	Qaror muddati, raqamli iz qamrovi, noto‘g‘ri rad etish darajasi va apellyatsiya imkoniyati

2-jadval kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligi iqtisodiy, institutsional va texnologik omillarning o‘zaro ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi. Mazkur tasnifni tavsifiy ma’lumotlar bilan to‘ldirish maqsadida Markaziy bankning 2021–2023-


yillardagi ochiq statistikasi asosida KO‘B subyektlariga ajratilgan kreditlar dinamikasi tahlil qilindi. Ushbu ko‘rsatkich moliyalashtirish ko‘lamining o‘zgarishini ifodalaydi, natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. 2021–2023-yillarda KO‘B subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi[37]

1-rasm ma’lumotlari KO‘B subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2021-yildagi 59,5 trln so‘mdan 2022-yilda 69,6 trln so‘mga oshib, 2023-yilda 64,6 trln so‘mgacha pasayganini ko‘rsatadi. Biroq kreditlarning mutlaq hajmi KO‘B segmentining bank tizimidagi nisbiy mavqeini to‘liq ifodalaganligi sababli uning umumiy kredit portfelidagi ulushi tahlil qilindi va natijalar 2-rasmda keltirildi.

2-rasm. KO‘B kreditlarining bank tizimi umumiy kredit portfelidagi ulushi,




[37] *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2023-yillardagi yillik hisobotlari hamda muallif hisob-kitoblari.*

2021–2023-yillar[38]

2-rasm ma’lumotlari KO‘B kreditlarining umumiy bank kredit portfelidagi ulushi 2021-yildagi 18,2 foizdan 2023-yilda 13,7 foizgacha qisqarganini ko‘rsatadi. Mazkur tendensiya KO‘B segmentining kreditlash tizimidagi nisbiy mavqei zaiflashganini anglatadi. Biroq ushbu holatni to‘liq baholash uchun umumiy kredit portfelining qarz oluvchilar toifalari bo‘yicha tarkibini ham tahlil qilish zarur. Shu maqsadda 2023-yil yakunidagi bank kredit portfelining yuridik va jismoniy shaxslar kesimidagi tuzilishi 3-rasmda keltirilgan.


3-rasm. 2023-yil yakunida bank kredit portfelining qarz oluvchilar bo‘yicha



tarkibi[39]

3-rasm bank kredit portfelining qarz oluvchilar bo‘yicha umumiy tarkibini aks ettiradi, biroq KO‘B subyektlarining moliyalashtirish holatini kompleks baholash uchun yetarli emas. Chunki ushbu segmentning moliyaviy imkoniyatlari kredit hajmi bilan bir qatorda makroiqtisodiy muhit, moliyaviy infratuzilma, firma xususiyatlari, axborot sifati, risklarni taqsimlash va moliyaviy vositalarning o‘zaro muvofiqligiga ham bog‘liq. Shu sababli nazariy yondashuvlar, omillar tasnifi va tavsifiy statistik natijalarni yagona tizimda birlashtiruvchi integratsiyalashgan nazariy-konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu model 4-rasmda keltirilgan.

[38] *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2023-yillardagi yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*
[39] *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil uchun yillik hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.*



4-rasm. Kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarining integratsiyalashgan nazariy-konseptual modeli[40]

4-rasmda taklif etilgan model moliyalashtirish samaradorligini shakllantiruvchi omillar, uzatish kanallari, moliyaviy vositalar va yakuniy iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Modelning asosiy xususiyati moliyaviy resurslarga kirish, instrumentlarning korxona ehtiyojlariga mosligi, risklarni taqsimlash, axborot shaffofligi va natijalar monitoringini yagona mexanizm doirasida birlashtirishidan iborat.

Muhokama. Taklif etilgan model Stiglitz–Weissning kredit ratsionirovkasi nazariyasini kengaytirib, axborot assimetriyasini garov va foiz stavkasi bilan birga soliq hisobotlari, elektron to‘lovlar, bank aylanmasi va raqamli ma’lumotlar sifati bilan bog‘laydi. Muqobil skoring va ochiq moliya infratuzilmasi kredit cheklovlarini yumshatishi mumkin, biroq ma’lumotlardan foydalanish rozilik, minimallashtirish, izohlanuvchanlik va apellyatsiya tamoyillariga asoslanishi lozim.

[40] *muallif ishlanmasi.*

“Pecking Order” nazariyasidan kelib chiqib, model moliyalashtirish vositalarini korxona hayotiy sikliga moslashtirishni nazarda tutadi: boshlang‘ich bosqichda grant va ulushli kapital, faoliyatni yo‘lga qo‘yishda mikroqarz va lizing, o‘sishda kredit, faktoring va kafillik, modernizatsiyada uzoq muddatli kredit yoki lizing, eksportda esa faktoring va sug‘urta ustuvor bo‘lishi mumkin.

Agentlik nazariyasi nuqtayi nazaridan davlat kafilligi va foiz kompensatsiyasi kredit riskini to‘liq davlat zimmasiga o‘tkazmasligi kerak. Bankning riskning bir qismini saqlab qolishi baholash va monitoring rag‘batini mustahkamlaydi. Davlat ko‘magi garov yoki axborot cheklovi sabab moliyalashtirilmayotgan, biroq iqtisodiy jihatdan yashovchan loyihalarga yo‘naltirilgandagina moliyaviy qo‘shimchalik yaratadi.

Institutsional yondashuv modelning bog‘lovchi elementi bo‘lib, moliyaviy instrumentlar samaradorligini shartnomalar ijrosi, mulk huquqi, soliq neytralligi, kredit axboroti va investorlar himoyasi bilan bog‘laydi. IFC va OECD tadqiqotlari ham muqobil instrumentlar, kafillik mexanizmlari va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [13, 18]. O‘zbekistonda PQ–306-son va 37-son qarorlarda turli moliyaviy vositalarning nazarda tutilishi ko‘p kanalli yondashuvga mos keladi [15, 16]. Bunday dasturlar samaradorligi ajratilgan mablag‘ bilan birga moliyaviy qo‘shimchalik, qaytuvchanlik, bandlik va biznes barqarorligi orqali baholanishi lozim.

Maqolaning nazariy hissasi kichik biznesni moliyalashtirishni resurs taqsimoti, axborot almashinuvi, risklarni bo‘lishish va institutsional muvofiqlashtirishning yaxlit jarayoni sifatida talqin qilishdan iborat. Tadqiqot konseptual xususiyatga ega bo‘lgani va agregat statistikaga tayangani sababli model koeffitsientlari hamda firma darajasidagi sababiy ta’sirlar baholanmagan. Keyingi tadqiqotlarda mikroso‘rovlar, panel ma’lumotlar va kvazi-eksperimental usullar asosida modelni empirik tekshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Tadqiqotda kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmi korxona ehtiyoji, moliyaviy instrumentlar, risk, axborot, institutsional muhit va iqtisodiy natijalarni birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilindi. Mavjud nazariy yondashuvlar integratsiyalashib, moliyalashtirish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar makroiqtisodiy, meso, mikro, institutsional-huquqiy, davlat qo‘llab-quvvatlashi va texnologik guruhlarga ajratildi.

Moliyaviy resurslarga kirish, qiymat, muddat va pul oqimi mosligi, diversifikatsiya, risk taqsimoti, institutsional muhit hamda axborot shaffofligini qamrab oluvchi integral model ishlab chiqildi. Qo‘shimcha iqtisodiy natija ushbu samaradorlikning alohida natijaviy ko‘rsatkichi sifatida belgilandi.

2021–2023-yillardagi tavsifiy ma’lumotlar KO‘B kreditlari hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmaganini ko‘rsatdi. Shu sababli moliyalashtirish samaradorligini faqat kredit hajmi bilan emas, balki qamrov, qiymat, instrumentlar mosligi, risk taqsimoti va real iqtisodiy natijalar orqali baholash zarur.

Amaliy jihatdan pul oqimiga asoslangan kreditlashni rivojlantirish, raqamli ma’lumotlardan foydalanish, kafillik mexanizmlarini tabaqalashtirish, faktoring, lizing va ulushli moliyalashtirishni kengaytirish hamda davlat dasturlarini moliyaviy qo‘shimchalik va iqtisodiy natijadorlik mezonlari asosida baholash maqsadga muvofiq. Taklif etilgan model keyingi empirik tadqiqotlar va amaliy pilotlar uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Modigliani F., Miller M. H. Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction // The American Economic Review. – 1963. – Vol. 53, No. 3. – P. 433–443.

2. Jensen M. C., Meckling W. H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360. – DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X.

3. Stiglitz J. E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.

4. Myers S. C., Majluf N. S. Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have // Journal of Financial Economics. – 1984. – Vol. 13, No. 2. – P. 187–221. – DOI: 10.1016/0304-405X(84)90023-0.

5. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

6. Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Law, Finance, and Firm Growth // The Journal of Finance. – 1998. – Vol. 53, No. 6. – P. 2107–2137. – DOI: 10.1111/0022-1082.00084.

7. Berger A. N., Udell G. F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle // Journal of Banking & Finance. – 1998. – Vol. 22, No. 6–8. – P. 613–673. – DOI: 10.1016/S0378-4266(98)00038-7.

8. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Financial and Legal Constraints to Firm Growth: Does Firm Size Matter? // The Journal of Finance. – 2005. – Vol. 60, No. 1. – P. 137–177. – DOI: 10.1111/j.1540-6261.2005.00727.x.

9. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 2931–2943. – DOI: 10.1016/j.jbankfin.2006.05.009.

10. Berger A. N., Udell G. F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 2945–2966. – DOI: 10.1016/j.jbankfin.2006.05.008.

11. Bernanke B. S., Gertler M. Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission // Journal of Economic Perspectives. – 1995. – Vol. 9, No. 4. – P. 27–48. – DOI: 10.1257/jep.9.4.27.

12. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

13. International Finance Corporation. MSME Finance Gap: Assessment of the Shortfalls and Opportunities in Financing Micro, Small and Medium Enterprises in Emerging Markets. – Washington, D.C.: IFC, 2017.

14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2023-yil uchun yillik hisobot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ–306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-6609110.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 37-son “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini amalga

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-6767101.

17. Abdullayev O., Fattaxov A. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021.

18. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. – Paris: OECD Publishing, 2024.